



MAMLAKATDA INNOVASION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY INDIKATORLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI

**Mamayev
Bahodirjon
Nosirovich**

AIQI, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasini mudiri, dotsenti, i.f.n.

**Akbutaeva Zuxra
Baxriddinovna**

*Jizzax, Paxtakor Sanoat texnologiyalari texnikumi
E-mail: bnmamayev@umail.uz +99897-759-88-65*

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovatsiyalar sohasidagi joriy tendentsiyalar va istiqbollarni o'rganadi, iqtisodiy o'sishga, xalq farovonligini ta'minlashga erishish hisoblanadi. Shu tufayli jahonning barcha mamlakatlarida hozirgi kunda raqobatbardosh xo'jalik tizimlarini yaratish, mavjud tizimlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy va samarali tajribalarini o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida investitsion faoliyatni faollashtirish ob'ektiv zaruriyatga aylangan. Chunki, bu ko'rsatkichlar bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tgan va o'tayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o'sish darajasini belgilab beradi. O'zbekistonda innovatsion rivojlanishga o'tish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritib berilgan, innovatsiyalarni joriy etishda mavjud hududiy tafovutlar va ularni hal etish yo'llari asoslangan.

Kalit so'zlar:

iqtisodiyot, innovatsiya, zamonaviy, ishlab chiqarish, texnologiya, strategiya, raqamli iqtisodiyot, korxona, jarayon, biznes, hudud, milliy xo'jalik, jamiyat, davlat, globallashtirish, moliyaviy resurs, mehnat resurslari

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari va davriy nashrlari hamda Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan e'lon qilingan tahliliy ma'lumotnomalariga ko'ra aytish joizki, sotilgan mahsulotlar umumiy hajmida innovatsion tovar, ish va xizmatlar ulushi 2015 yilda 2,9 %, 2013 yilda 3,9%, 2020 yilda 5,8 % ni tashkil etgan. 2022 yilda sotilgan innovatsion mahsulotlar ulushi 6,5% ni tashkil etgan, bu 2020 yildagiga qaraganda taxminan 0,7 foizga oshgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2015-2022 yillarda innovasiya faoliyati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹

№	Kўrsatkichlar	2015 й.		2018 й.		2020 й.		2022 й.	
		ЖАМИ	САНОАТ	ЖАМИ	САНОАТ	ЖАМИ	САНОАТ	ЖАМИ	САНОАТ
1.	Сотилган маҳсулотлар умумий ҳаҷмида инновацион маҳсулотлар улushi, %	2,9	4,5	3,2	3,9	5,8	8,4	6,5	8,4
2.	Сотилган инновацион товар, иш ва хизматлар ҳаҷмининг ўсиш суръати, %	100	100	62,3	54,6	126,4	130,7	116,4	125,4
3.	Инновациялар учун сарфланган умумий харажатларда таъкилотларнинг ўз маблағлари улushi, %	60,5	74,9	70,6	75,2	68,4	54,0	36,8	31,0
4.	Инновациялар учун харажатлар коэффициенти	0,014	0,012	0,005	0,004	0,003	0,005	0,026	0,043
5.	Инновациялар учун харажатлар ҳаҷмининг ўсиш суръати, %	100	100	121,4	63,8	73,0	122,4	72,0	91,1
6.	Инновацион фаол корхоналар улushi	0,13	0,37	0,07	0,25	0,07	0,23	0,35	1,29
7.	Ҳар бир инновацион фаол корхона ҳиссасига тўғри келувчи жорий этилган технологик инновациялар сони	2,2	3,5	4,4	3,5	3,8	3,9	1,7	1,6
8.	Илмий-тадқиқот ишлари бўйича ҳамкорлик даражаси	25,5	15,5	15,8	19,3	8,8	16,3	9,2	4,5

2022 yilda respublikamizda 2171 ta korxona tomonidan 18543,3 mlrd so'mlik innovation mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarilgan. Ushbu davrda ular tomonidan 1946 ta texnologik innovatsiyalar joriy etilgan. Biroq, innovation faol korxonalar ulushi 0,34 foizni, innovatsiyalarni tegishli tarmoq yoki sohalarga joriy etish koeffitsienti esa atiga 1,2 ni tashkil etmoqda, xoloc (1-rasmga qarang). Umumiy eksport hajmida innovation mahsulotlar eksportining ulushi 1,46 foizdan iborat.



1-rasm. 2015-2022 yillarda innovation mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot²

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari.

Ta'kidlash joizki, ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 70-90 foizi innovasiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga olinadi. Yuqori texnologiyali tarmoqlar innovasion mahsulotlari ulushi 2022 yilda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali mahsulotlar umumiy hajmining 11,1 % ni tashkil etgan. Shu bilan birga, o'rtacha yuqori texnologiyali mahsulotlar umumiy hajmida innovasion mahsulotlar ulushi 15,3 % ni tashkil etgan.

Innovasion mahsulotlarni eng ko'p miqdorda eksportga chiqargan korxonalar - bu o'rtacha yuqori texnologiyalar sektori korxonalari bo'lgan. 2022 yilda innovasion sanoat mahsulotlari eksport hajmida o'rtacha yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi 51,1 % ni, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi eca 6,9 % ni tashkil etgan. Sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmida 2022 yilda jami ilm-fan yutuqlariga asoslangan, yuqori texnologiyali va o'rtacha yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari ulushi 13,87 foizni tashkil etgan (5-jadvalga qarang).

2022 yilda sotilgan mahsulotlar umumiy hajmida innovasion mahsulotlar ulushi 6,5 foizni, innovasion mahsulotlar umumiy hajmida innovasion mahsulot eksporti ulushi 17,6 foizni tashkil etgan. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida sotilgan mahsulotlar umumiy hajmida innovasion mahsulotlar ulushi juda past ko'rsatkichni tashkil etadi, mazkur ko'rsatkich elektronika tarmog'ida 2022 yilda 0,001 foizni tashkil etgan.

So'ngi yillarda metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi ancha oshdi. Innovasion mahsulotlar ishlab chiqarish umumiy hajmida yoqilg'i sanoatining ulushi kamaygan. Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tarmoqlar bo'yicha differensiyalash tendensiyasi kuzatildi.

Innovasion mahsulotlarning katta qismini (80,0%) oxirgi 2 yilda o'zlashtirilgan tovar, ish va xizmatlar tashkil etadi. Ilk bor o'zlashtirilgan innovasion mahsulotlar 2021 yilda 18,5% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022 yilga kelib 15,1 foizni tashkil etgan. Shuning yarmi xorijiy mamlakatlarga sotilgan.

Hozirgi kunda tarkibida ilmiy-tadqiqot muassasasi mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarda 7599 nafar yuqori malakali ilmiy xodimlar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda, shundan 1070 nafarga yaqini injener-texnik xodimlardir (2-jadvalga qarang).

Hozirgi kunda davlat ilmiy-texnika dasturlari doiracida 1650 dan ortiq fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovasiya ishlari davlat ilmiy-texnika dasturlari loyihalari bajarilmoqda.

Amalga oshirgan tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan yillar davomida amaliy tadqiqotlar doiracida ishlab chiqilgan innovasion loyihalar soni 2,9 martaga oshgan (2011 yilda innovasion loyihalarning soni 128 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 382 taga yetgan). O'tgan uch yil davomida davlat ilmiy-texnika dasturlari doiracida 282 ta patent va 189 ta dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olingan, 103 ta ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari amaliyotga tadbiiq etilgan, 13,1 mingdan ortiq ilmiy maqolalar (ularning 2,5 mingtasi (25,2%) – nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

I-IX Innovasion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar Respublika yarmarkalarida 4200 dan ziyod innovasion g'oya va ishlanmalar, texnologiyalar namoyish etilib,

umumiy qiymati 144,1 mlrd. soʻmdan ziyod boʻlgan 4000 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Shartnomalarning amalga oshirilishi samarasida umumiy qiymati 2,2 trillion soʻmlik 62 turdagi yangi mahsulotlar seriyalab ishlab chiqarilmoqda. 59 ta shartnoma doirasida mahsulotlarning tajriba-sinov va sanoat namunalari tayyorlandi.

2-jadval

Sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmida yuqori texnologiyali va oʻrtacha yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari solishtirma vazni, (% hisobida)³

Саноат тармоқлари	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Саноат, жами	100	100	100	100	100	100	100	100
Юқори технологияли тармоқлар								
Ҳисоблаш техникаси воситалари саноати	0,187	0,121	0,156	0,151	0,124	0,079	0,099	0,032
Тиббиёт, физиология ва биология учун мўлжалланган асбоб-ускуналар ишлаб чиқариш	0,009	0,002	0,001	0,001	0,001	-	-	0,002
Оптик ва оптик-механик асбоб ва аппаратлар ишлаб чиқариш	0,013	0,012	0,016	0,019	0,015	0,006	0,005	0,001
Технологик жараёнларни назорат қилиш ва тартибга солиш асбоб-ускуналари ишлаб чиқариш	0,035	0,194	0,025	0,060	0,018	0,027	0,038	0,026
Механик катталикларни ўлчаш асбобларини ишлаб чиқариш	0,006	-	-	-	-	-	-	0,002
Кимё-фармацевтика саноати	0,304	0,168	0,199	0,269	0,301	0,347	0,653	0,749
Микробиология саноати	0,254	0,112	0,123	0,030	0,043	0,011	0,007	0,026
Ўртача юқори технологияли тармоқлар								
Кимёвий тола ва ип саноати	0,052	0,020	0,013	0,023	0,019	0,033	0,046	0,026
Автомобиль тракторлар учун тиркамалар ишлаб чиқариш	3,544	7,183	8,390	9,028	9,796	9,618	8,909	11,706
Қишлоқ хўжалиги машинасозлиги	0,624	0,177	0,140	0,119	0,105	0,096	0,206	0,163
Жами юқори технологияли ва ўртача юқори технологияли sanoat тармоқлари	6,1	9,4	10,0	11,0	11,4	11,6	10,8	13,8

Ilmiy-innovation salohiyatni, fan va ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni kuchaytirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash maqcadida ishlab chiqarishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini o'zlashtirish;

➤ bozor kon'yunkturaci dinamikasini hisobga olgan holda innovation jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash;

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari.

➤ barqarorlashtirish va texnologik inqirozdan chiqishga ko'maklashuvchi yangiliklarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha innovasion faoliyatni faollashtirish yo'li bilan yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan tubdan yangilash;

➤ iqtisodiyotning real sektorida raqobatbardoshli, kompyuter axborot texnologiyalar va murakkab texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirish sohasidagi mahsulotlarni chiqarishga ko'maklashuvchi innovasion texnologiyalar va ishlab chiqarishlardan foydalanish;

➤ chet ellik hamkorlar bilan mahalliy ilmga oid mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va ularni ichki va tashqi bozorlarda sotish bo'yicha qo'shma korxonalarni tashkil etish uchun sharoitlarni yaratib berishni ko'zda tutuvchi tashqi iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni faollashtirish.

Innovasion faollikni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi lozim:

➤ bilimlarni to'plash uchun zarur bo'lgan bazaviy institutlar va ilmiy hamjamiyatlar (muhit) tizimini saqlash va rivojlantirish;

➤ fan sohasida teng bo'lgan yo'nalishlarni tanlab olish va qo'llab-quvvatlash;

➤ texnologiyalarni yaratish va tijoratlashtirish;

➤ innovasion infratuzilmalarni rivojlantirish;

➤ innovasion rivojlanishga qaratilgan sanoatni modernizatsiyalash.

Yangiliklarni amaliyotga joriy etish, innovasion jarayonlarning holati innovasion loyihalarni va innovasion faoliyat infratuzilmalarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan moliyaviy institutlarning innovasion sikl bo'yicha o'zaro bog'langan tizimini shakllantirishni talab etadi 2-rasmga qarang).

Mazkur yo'nalishni amalga oshirishda quyidagi muammolarni hal etish lozim bo'ladi:

1. Innovasion faoliyatni rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmni isloh qilish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- soliq solinadigan bazani aniqlashtirish;

- soliq solish mexanizmini takomillashtirish;

- tashkilotlarga investitsiya manbasi sifatida amortizasion jamg'armalarni ko'paytirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida amortizasion siyosatini o'zgartirish;

- kredit tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- ilmga oid uskunalar lizingini rivojlantirish;

- chet el sheriklar bilan mahalliy ilmga oid mahsulotni chiqarish va uni tashqi bozorda sotish bo'yicha tashkilotlarni tashkil etish uchun sharoitlarni yaratishni ko'zda tutuvchi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish;

- ilmiy salohiyatni yanada to'liqroq joriy etish hamda ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish uchun ilmiy-texnik va oliy maktab, ilmiy tashkilotlar va muassasalarning innovasiyalarni majmuaviy holda qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

- innovasion-sanoat majmualari va markazlari, texnoparklar, innovasion korxonalar va alohida innovasion loyihalarni moliyalashtirishning moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish;

- milliy ilmiy-texnik ishlanmalarni o'zlashtiruvchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish.



2-rasm. Hududlarda innovasiya faoliyatini rag'batlantirish mexanizmi⁴

XULOQA

O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini shakllantirishni yanada takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish maqsadida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning bozor mexanizmlaridan keng foydalanish, ya'ni investitsiyalarni fond bozori orqali, venchurli moliyalashtirish, lizing, sinditsiyalashtirilgan kreditlar hisobiga moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Rivojlangan mamlakatlar tajribaci ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etmoqda.

⁴ Манба: Муаллиф ишланмаси.

Bozor munosabatlari shakllangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, chet el investitsiyalarini keragidan ortiq jalb etish ham mamlakatni iqtisodiy va siyosiy qaramlikka olib kelishi mumkin. Shu bois, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlagan bizning respublikamiz uchun ham nafaqat tashqi investitsiyalar, balki ichki investitsiyalarni jalb etish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kurpayanidi K. I. Digital economy as a factor of activation of foreign economic activity// Scientific-technical journal - 2022. - T. 26. - №. 11-C. 129-133.
2. Xomidov, M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64.
3. Umarov, Tursunboy Sayfiddin o'g'li (2024) Korrelyatsiya koeffitsientini statistik baholash. Analytical Journal of Education and Development, 4 (5). pp. 413-415. ISSN 2181-2624
4. Tadbirkorlik faoliyatida loyixaviy boshqaruvni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari Y. Nematillo "PEDAGOGS" international research journal 59 (Issue-1), 202-207
5. Shukurullaevna, B. S. (2023). Management system for the effective use of labor potential in the development of integration processes. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 466-473.
6. Qahhorov, S. (2023). Soliq siyosatini iqtisodiy faollikka yo 'naltirilgan mexanizmlarini takomillashtirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 261-263.
7. Davidova D. T. Sug'urtada axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ulardan foydalanish mezonlari //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – T. 2. – №. 23. – C. 56-62.
8. Mamayev B.N. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli marketing elementidan biri internet-reklamadan foydalanishning tendensiyalari vol. 1 no. 8 (2022): O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali /
9. Mamayev B.N. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari, International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 20 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2
10. Mamayev , B. N. (2023). O'zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda klasterlash. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 693–700. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4511>